

## O`ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

*Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
Xudoberdiyev Jamoliddin*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyat olib boradigan asosiy tamoyillar: taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, ishonchliligi va o'z vaqtida berilishi; ular faoliyatining oshkoraliqi va shaffofligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariiga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish kabilar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** yoshlarga oid davlat siyosati, ochiqlik, shaffoflik, davlat hokimiyati institutlari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bugunki kunda davlat faoliyatining barcha sohalari va yo'nalishlarining shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida kelgusi yillarda amalaga oshiriladigan islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib unga ko'ra:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish mamlakatning kelgusida amalga oshiradigan islohotlarining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab berilgan.<sup>[1]</sup> Bundan tashqari davlat hokimiyating barcha sohalarida, jumladan, norma ijodkorligiga jarayoni, qonunlarni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va qabul qilish, mahalliy davlat hokimiyati tomonidan chiqariladigan qarirlarni qabul qilish jarayoni, sud hokimiyati, sudlov jarayonlarini shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga oid bir qancha qonun, farmon va qarorlar

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

chiqarildi. Albatta davlat hokimiyati institutlarining shaffofligini (ochiqligi) ta'minlashning ustuvor yo`nalishlari huquqiy asoslardan kelib chiqadi. Qonunchiligidan davlat hokimiyati institutlarining shaffofligini (ochiqligi), fuqarolarning davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar faoliyatiga oid ma'lumotlardan erkin foydalanishini ta'minlashning huquqiy asoslari sifatida bir qancha normativ-huquqiy asoslari qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-sonli Qonuni 14-moddasiga binoan, yuridik va jismoniy shaxslar o'zлari to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanish, mazkur ma'lumotlarning to'liqligi hamda to'g'rilibagini ta'minlash maqsadida ularga aniqliklar kiritish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan.[2] Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'RQ-369-sonli Qonuni 1-moddasiga binoan, Qonunning maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solib, jismoniy va yuridik shaxslarning axborotga bo'lgan konstitusiyaviy huquqlarini amalga oshirish shakllarini belgilash hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar yuzasidan mas'uliyatini oshiradi hamda axbrotni tarqatish tartibini belgilaydi.[3] Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini quyidagi usullar orqali amalga oshiradi:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish);
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organining faoliyati to'g'risidagi axborotni ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish va yangilab borish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organining faoliyati to'g'risidagi axborotni hamma erkin kirishi mumkin bo'lgan xonalarga va joylarga joylashtirish hamda yangilab borish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali taqdim etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay'at majlislarida axborotdan foydalanuvchilarining hozir bo'lishi uchun sharoitlar yaratish;
- axborotdan foydalanuvchilarining so'rovlari asosida ularga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida og'zaki va yozma shaklda (shu jumladan elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etish.[3] Demak, fuqarolarning huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, ularning jamiyatdagagi siyosiy faolligini oshirish ko'p jihatdan ularning mamlakatda mavjud qonunchilikni bilishiga, axborot bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Dunyo miqyosida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborotning o'rni va roli oshib borayotganligini va bu holat o'z navbatida jamiyatni yetarli va samarali tarzda

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda

### ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

axborotlashtirish zaruratini keltirib chiqarayotganligini ko‘ramiz. Bizningcha, bunday zaruratning kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

- umumjahon axborot makonining shakllanishi va axborot integratsiyasi jarayonlarining chuqurlashuvi;
- axborot olish, tarqatish, undan foydalanish darajasining oshishi hamda bu jarayonlarning texnik vositalar bilan keng ta’minlanganligi;
- ijtimoiy munosabatlar tizimida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi rolining oshishi;
- jamiyat hayotining turli sohalarida axborot texnologiyalari, hisoblash texnikasi va telekommunikatsiya vositalarining asosiy o‘rinni egallab borayotganligi;
- jamiyat rivojlanishi va shaxslar hayotiy faoliyatining turli jabhalarida zarur va yetarli hajmda axborotni yetkazib berish zaruriyati;
- xalqaro, davlatlararo, hududlararo axborot almashinuvi tizimi imkoniyatlarining kengayishi hisobiga ilmiy-texnik va madaniy rivojlanish hamda ta’lim darajasining oshishi;
- shaxs, jamiyat va davlat axborot xavfsizligini ta’minalash masalalari ahamiyatining oshishi.

Bu jarayonda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari quyidagi tamoyillarga asosan ish ko‘rishlar lozim: taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, ishonchliligi va o‘z vaqtida berilishi; ular faoliyatining oshkoraliqi va shaffofligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o‘z sha’ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o‘z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo‘lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z ishchanlik obro‘sini himoya qilishga bo‘lgan huquqlariga rioya etish.[4] O‘zbekistonning xalqaro hamjamiatdagi mavqeining oshishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida jismoniy va yuridik shaxslar bilan axborotlar almashinuvini rivojlanish darajasini tashkil qilishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Zero, har qanday mamlakatning xalqaro, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy munosabatlari, ularning axborotlar almashinuvi borasida o‘z aksini topadi.[4] Shuning uchun ham hozirgi davrda huquqiy sohada axborotlar almashinuvi mamlakatlar, davlatlar, millatlar o‘rtasidagi munosabatlarning dinamik xarakterini belgilaydigan asosiy omilga aylanmoqda. Davlat hokimiyati institutlari faoliyatining ochiqligiga oid qonunchilik tizimini tahlil etish bu sohada quyidagi bir qator qiyinchiliklar va muammolar borligidan dalolat beradi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalari va tegishli qonunchilik normalari fuqarolarning axborotga bo‘lgan huquqlarini ta’minalash va kafolatlashga qaratilgan bo‘lsada, ularning ayrimlari deklarativ xarakterga ega. Ularda

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda

### ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

fuqarolarning mazkur huquqlarini amalga oshirishning mexanizmlari oxirigacha shakllantirilmagan. Ko‘p hollarda qonun yo‘li bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan masalalar idoraviy hujjatlar bilan to‘ldirilmoqda. Ushbu holat o‘z navbatida muayyan bo‘shliqlarni va ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, muhofaza etiladigan axborotlarning qat’iy ro‘yxati, oshkor etilishi muayyan javobgarlik keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan axborotlarning turlari, fuqarolarni huquqiy axborot bilan ta’minalash tartibi, hujjatlashtirilmagan rasmiy axborotning maqomi, zararli axborot tushunchasi kabi bir qator masalalar tegishli qonunchilikda yetarli tarzda belgilab qo‘yilmagan yoki umuman o‘z aksini topmagan.

2.Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xizmatchilarining fuqarolar oldidagi hisobdorlik madaniyatini yuksaltirish.

“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minalash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247 farmonning 7-bandiga ko‘ra: ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari va tashkilotlari xizmatchilariga “davlat organlari faoliyati ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi” madaniyatini singdirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq oldida hisobdorligini ta’minalash muhimligi to‘g‘risida tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish nazarda tutilgan.[3] Biroq, hozirgi kunda davlat hokimiyati institutlari faoliyatning ochiqligini ta’minalashga oid islohotlar olib borilayotganiga qaramay mazkur sohadagi ishlar samaradorligi pastligicha qolmoqda. Bunga asosan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati pastligicha qolayotgani, davlat hokimiyati organlari xizmatchilarining o‘z ishiga mas’uliyatsiz ravishda qarashi va fuqarolar oldida hisobdorlik madaniyati yetishmasligi sabab bo‘lmoqda.

Shuning uchun ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xizmatchilarining fuqarolar oldidagi hisobdorlik madaniyatini yuksaltirish hozirgi kun talabidir.

Fuqarolarning davlat hokimiyati organlari qabul qilayotgan qarorlarga nisbatan daxldorlik hissini oshirish, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali davlat hokimiyati organlari va tashkilotlarning ochiqligi va shaffofligiga oid islohotlar samaradorligiga erishiladi. Qabul qilinayotgan qarorlarning sifati oshishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adilxodjayeva S.M. Globalizatsiya i strategiya gosudarstva. –Tashkent: TDYUI, 2007. – 130 b.
2. Bafayev SH. Essence and legal nature of public control. European Journal of Research volume 5, issue 9, 2020 - pages 43-51
3. Konsepsiya razvitiya informatsionnogo zakonodatelstva v Rossiyskoy Federatsii // Gosudarstvo i pravo. –2005. –№7. –S.47-61.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

4. Abduazizova N. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada liberallasshtirish // Jamiyat va Boshqaruv. - 2005. -№2. -B.66-70.

